Available online at https://refocus.uz/

RESEARCH FOCUS
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

Vol. 5, Issue 10, 2026
ISSN 2181-3833 | Uzbekistan
https://refocus.uz/

RESEARCH ARTICLE • PEER-REVIEWED • OPEN ACCESS • SERIES D • HAC/OAK 13.00.00 — PEDAGOGICAL SCIENCES

Uzbekistan’s participation in international assessment programmes

O‘zbekistonning xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki

Участие Узбекистана в международных программах оценки

DJUMAQULOV Shuxrat Baxodirovich[1,*]

[1] *Department of Law and Social and Humanitarian Sciences, Tashkent Academic Lyceum No. 2 of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Chirchik, Uzbekistan*

* Corresponding author: shuxratdjumaqulov834@gmail.com

ARTICLE INFO

ARTICLE TYPE
Research Article

LANGUAGE OF FULL TEXT
O‘zbekcha (UZ)

SCIENTIFIC FIELD / OAK
☑ 13.00.00 – Pedagogical Sciences
Pedagogika fanlari
Series D

ARTICLE HISTORY
Received: 2026-10-09
Revised: 2026-10-20
Accepted: 2026-10-27
Published: 2026-10-31

DOI
https://doi.org/10.66073/researchfocus.v5i10.1020

CONTACT
ReFocusJournal@gmail.com

LICENSE
Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0). This is an open access article distributed under the terms of the CC BY 4.0 licence.

AUTHOR, TITLE AND ABSTRACT METADATA (EN / UZ / RU)

ENGLISH

DJUMAQULOV Shuxrat Baxodirovich[1,*]

[1] *Department of Law and Social and Humanitarian Sciences, Tashkent Academic Lyceum No. 2 of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Chirchik, Uzbekistan*

Abstract. This article examines international assessment programs—such as PISA, PIRLS, and TIMSS—the significance of participating in them, and the issue of Uzbekistan’s involvement in these programs.

Keywords: international assessment programmes, educational achievements of students, PISA, PIRLS, TIMSS

O‘ZBEKCHA

DJUMAQULOV Shuxrat Baxodirovich[1,*]

[1] *“Huquq va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 2-son Toshkent akademik litseyi, Chirchiq, O‘zbekiston*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar, ularda ishtirok etishning ahamiyati, O‘zbekistonning mazkur dasturlardagi ishtiroki masalasi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash dasturlari, o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlari, PISA, PIRLS, TIMSS

РУССКИЙ

ДЖУМАКУЛОВ Шухрат Баходирович[1,*]

[1] *Кафедра «Право и социально-гуманитарные науки», Ташкентский академический лицей № 2 Министерства внутренних дел Республики Узбекистан, Чирчик, Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассматриваются международные программы оценки, такие как PISA, PIRLS и TIMSS, важность участия в них, а также вопрос участия Узбекистана в этих программах.

Ключевые слова: международные программы оценки, образовательные достижения учащихся, PISA, PIRLS, TIMSS

1. KIRISH

Introduction

Ma’lumki har bir mamlakat taraqqiyoti uchun ta’lim tizimini rivojlantirish, maktab ta’limida davomat, tartib-intizom, darslarga xalaqit beruvchi turli omillarni bartaraf qilish, o‘qituvchi bilimi, saviyasi, shogirdini munosib qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e’tirof qilingani haqiqatdir. Masalan, yaponlarda “maktab muvaffaqiyat va

How to cite / Iqtibos keltirish / Как цитировать: DJUMAQULOV, S. B. (2026). Uzbekistan’s participation in international assessment programmes. Research Focus International Scientific Journal, 5(10), 103–106. https://doi.org/10.66073/researchfocus.v5i10.1020

© 2026 The Author(s). Published by Research Focus International Scientific Journal. Open access article under the CC BY 4.0 licence.

HAC / OAK: On the HAC list of national scientific publications (Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan) for 06.00.00 Agricultural Sciences and 16.00.00 Veterinary Sciences.
O‘zbekiston Respublikasi FA huzuridagi OAK ro‘yxatida: 06.00.00 – Qishloq xo‘jaligi fanlari; 16.00.00 – Veterinariya fanlari.

farovonlik timsoli”gina bo‘lib qolmay, “u insonlarni barkamollashtiradi”, degan fikr ishonch va e’tiqodga aylangan.

Bugungi kunda maktab ma’muriyati yaxshi o‘qituvchilarni ko‘paytirishi, qo‘llab-quvvatlashi, sifatli o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishini yo‘lga qo‘yishi lozim. Xalqaro baholash dasturlari esa ta’lim sohasidagi bilimlarni baholash, shu orqali mamlakatlar intellektual darajasini jahon hamjamiyatiga nomoyon qilishni amalga oshiradi. Bu esa xalqaro ishlab chiqaruvchilar tomonidan yoshlari intellektual darajasi yuqori davlatlarga sarmoya kiritishiga sabab bo‘ladi. Xalqaro investorlar tomonidan mamlakatga investitsiya kiritilishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib xalqaro baholash dasturlari va mamlakatimizning ushbu dasturlardagi ishtirokini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Literature review

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz. Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta”[1] degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlarni tarbiyalashda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi eng oxirgi yutuqlarni o‘rganish, e’tiborli jihatlarini milliy ta’lim tizimimizga joriy qilish orqali mamlakatimiz yoshlarini har tamonlama jahon mamlakatlari yoshlari bilan bellasha oladigan darajaga olib chiqish lozim.

O‘zbekiston yoshlarining dunyo mamlakatlari yoshlari bilan turli fanlar bo‘yicha bilim saviyasini baholash hamda taqqoslashda PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining o‘rni katta.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018- yil 8-dekabrdagi 997-sonli qaroriga asosan Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil qilingan”[2]. Ushbu markaz tomonidan xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish, ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovasion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Research methodology

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu bo‘yicha PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari faoliyat olib bormoqda.

PISA-(Programme for International Student Assessment) ta’lim oluvchilarning ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturi va ta’lim sifati monitoringi bo‘lib, 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari, zamonaviy jamiyatda to‘laqonli faoliyat yuritishlari, keng ko‘lamli muammolarni hal etishlari uchun zarur kompetentlik darajasini o‘rganadi. Ushbu dastur Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organization for Economic Cooperation and Development) tomonidan amalga oshiriladi.

PISA testlari xalqaro tan olingan o‘lchovdan foydalanib, o‘qitish tizimlari, maktablar, o‘qituvchilar va o‘quvchilardan ma’lumotlarni to‘plab, o‘quvchilar bilimini baholaydi.

Bu test sinovlari 2000 yildan boshlangan. Testlar o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish bo‘yicha mahorat hamda bilimini sinovdan o‘tkazadi. O‘quvchilar 2 bosqichda saralab olinadi. 1-bosqichda qishloq va shahar hududlaridan aralash 150 maktab tanlab olinadi. Keyin har bir maktabdan 42 o‘quvchi ixtiyoriy tanlanadi. Test natijalari 3 guruhga ajratiladi: o‘rtachadan yuqori, o‘rtacha va past.

Bugungi kunda PISA bo‘yicha Singapur etakchilik qilib kelmoqda.

2022-yilda O‘zbekiston maktablari 15 yoshli o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha xalqaro dastur – PISA imtihonlarida birinchi bor ishtirok etdi. Sinov natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 81 ta mamlakat orasida matematika bo‘yicha 72-o‘rinni, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi yo‘nalishlarida 80-o‘rinni egalladi.

PISA testining 2022-yilgi natijalari bo‘yicha 81 mamlakatdan 15 yoshli 690 ming o‘quvchi qatnashgan. Ular o‘z mamlakatlaridagi 26 million o‘quvchining o‘rtacha bilimini aks ettiradi.

PISA- 2025 xalqaro baholash natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston o‘quvchilari tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha 2022-yilga nisbatan 82–83 ballga o‘sib 48-o‘rinni egalladi. Raqamli dunyoda o‘rganish (masalani kompyuter yordamida yechish) yo‘nalishida 72-o‘rinni egalladi.

PISA qizlar va o‘smirlarning o‘zlashtirishi bo‘yicha alohida reyting shakllantiradi. Bundan tashqari dunyoning eng a’lochi 20 nafar o‘quvchisini ham aniqlaydi. Bugungi kunga qadar o‘tkazilgan tadqiqotlarda unga Xitoy va Vetnamdan ko‘proq yoshlar kirganini qayd etish lozim.

PIRLS – (Progress in International Reading Literacy Study) bu turli mamlakatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilari tomonidan o‘qish sifati va o‘qilgan matnni tushunish darajasini baholashning xalqaro tizimi va u asosida olib boriladigan xalqaro tadqiqot hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshirilishi belgilangan. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o‘tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfga maktab o‘quvchilarini qabul qilish yoshi turlichadir. Ko‘plab mamlakatlarda bolalar maktabga olti yoshdan qabul qilinadi va to‘rtinchi sinfni 10,5 yoshda tugatadi. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o‘quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi. Shvetsiya, Daniya

va ko‘plab Sharqiy davlatlarda maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi. Ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi. Sinovlar har 5 yilda bir marta o‘tkaziladi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo‘ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo‘yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog‘ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o‘qish salohiyati bo‘yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

2021-yilda o‘tkazilgan PIRLS tadqiqotlarida ilk bor ishtirok etgan O‘zbekiston 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egalladi. Tadqiqot mualliflarni natijalarni o‘qish ko‘nikmalari darajalari bo‘yicha 4 guruhga (past daraja - 400 ball, o‘rtacha - 475 ball, yuqori- 550 ball va rivojlangan-625) bo‘lishganda, O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 70 foizi quyi va 34 foizi o‘rtacha natijalarni qayd etishgan. O‘quvchilarning 7 foizi yuqori natijalarga erishgan bo‘lib, rivojlangan darajasiga erishgan o‘quvchilar yo‘q.

Tadqiqotda qatnashgan o‘quvchilar orasida qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqori natijalarni qayd etgan.

O‘zbekistonda qizlar va o‘g‘il bolalar natijalari orasidagi o‘rtacha farq 24 ballni tashkil qilgan. O‘g‘il bolalar va qizlarning o‘qish savodxonligi ko‘rsatkichlari orasidagi eng kichik farq Ispaniyada 2 ball, Chexiya va Isroilda 4 ballni tashkil etgan bo‘lsa, yuqori farq Ummon, Iordaniyada 36 ball, Bahraynda 49 ball, Janubiy Afrikada 57 ball bo‘lgan.

TIMSS – (Trends in Mathematics and Science Study) matematika va Science ta’limi sifatini baholashga oid xalqaro tadqiqot bo‘lib, IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil qilingan. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4-va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, har to‘rt yilda o‘tkazib kelmoqda.

TIMSS da ishtirok etayotgan davlatlar soni yildan-yilga ko‘payib bormoqda. 2015 yilda TIMSS tadqiqotlarida 57 davlat ishtirok etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 60 dan ortiq davlatni tashkil etgan. O‘tkazilgan tadqiqotlarda turli yillarda Singapur, Janibiy Koreya, Yaponiya, Belgiya eng yuqori ballga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturida ilk bor 2023 yilda rasman ishtirok etdi. 2023 yilning aprel-may oylarida o‘tkazilgan sinovlarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 166 ta maktabdan jami 8 800 nafar o‘quvchi (4 450 nafar 4-sinf va 4 350 nafar 8-sinf o‘quvchisi) ishtirok etib, natijalar 2024 yil dekabr oyida e’lon qilingan. Unga ko‘ra 4-sinf o‘quvchilari natijalari matematikadan 58 ta davlat ichida 50-o‘rin, tabiiy fanlardan 58 ta davlat ichida 54-o‘rin, 8-sinf o‘quvchilari natijalari matematikadan 44 ta davlat ichida 32-o‘rin, tabiiy fanlardan 44 ta davlat ichida 39-o‘rinni egallagan.

Xalqaro ekspertlar va mahalliy tahlilchilar fikriga ko‘ra oilaviy muhit, dars qoldirish, sinfdagi tartib-intizom darajasi pastligi, ta’lim tizimi hali ham asosan yodlashga (reproduktiv bilimga) yo‘naltirilgani kabi omillar O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini pasaytirgan.

Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR

Analysis and results

O‘zbekistonda ham 2030-yilga qadar xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan va mazkur hujjatning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash, 2030 yilga borib kuchli Top-30 talikka kirish strategik vazifa sifatida belgilangan.

5. XULOSA

Conclusion

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda mamlakatimiz ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalarga – xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, pedagog va o‘quvchilarda PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari, tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, o‘qituvchilarga amaliy va uslubiy yordam berish maqsadga muvofiqdir.

DECLARATIONS

Declarations

Author contributions *CRediT*

Conceptualization; Methodology; Investigation; Writing – original draft; Writing – review & editing. The author has read and agreed to the published version of the manuscript.

Funding

This research received no external funding.

Ethics approval

Not applicable. This study did not involve humans, animals or other regulated materials.

Informed consent

Not applicable.

Data availability statement

All data supporting the findings of this study are included in the article.

Conflict of interest

The author declares no conflict of interest.

Generative AI disclosure

Not used.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

References (original language)

[1] Ш.М.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси” Тошкент, 2021 й.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018- yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

[4] B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika” darslik, Toshkent 2017 yil.

[5] https://www.gazeta.uz

REFERENCES (ROMAN SCRIPT)

Transliterated list — required by Scopus and Web of Science

[1] Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent, 2021 y. (in Uzbek)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018- yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

[4] B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika” darslik, Toshkent 2017 yil.

[5] https://www.gazeta.uz